



O'z vaqtida ogohlantirish, qutqarish va yordam berish asosiy vazifamizdir!

# Vaziyat

2024-yil  
24-oktabr  
№ 43 (984)



O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi nashri

Gazeta 2004-yil 7-maydan chiqa boshlagan

## TO'MARIS IZDOSHLARI



FVV Akademiyasida "To'maris izdoshlari – 2024" ko'rik-tanlovining Favqulodda vaziyatlar vazirligi bosqichi o'tkazildi.

Tanlovda vazirlikning mas'ul vakillari, Akademiya rahbariyati, harbiy xiz-



matchilar, kursantlar hamda OAV vakillari ishtirok etdilar.

Qizg'in va murosasiz kechgan ko'rik-tanlov natijalariga ko'ra, umumjamo'a hisobida FVV Akademiyasi jamoasi birinchi o'rinni, vazirlik markaziy apparati terma jamoasi ikkinchi o'rinni egallagan bo'lsa, uchinchi o'rin Toshkent shahar FVB jamoasiga nasib etdi.

G'oliblar tashkilotchilar tomonidan diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.

**Farhodjon XOJAYEV,**  
FVV Akademiyasi katta o'qituvchisi,  
mayor.

## MUHMIM SIYOSIY JARAYON

Mamlakatimizda joriy yilning 27 oktabr kuni bo'lib o'tadigan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi, Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlar deputatlariga saylovi oldidan joylarda qizg'in hozirlik ko'rilmogda.

Jumladan, saylov uchastkalarida saylovlar sanasiga bag'ishlangan plakatlar, saylov uchastkasining xaritasi, uchastka komissiyasi a'zolarining tarkibi, ish rejasi, navbatchilik jadvali, fuqarolar murojaati uchun Markaziy saylov komissiyasining ishonch telefoni, elektron manzili, okrug komissiyasi, tegishli tuman (shahar) sudi va prokuraturasi telefon raqamlari aks etirilgan ma'lumotlar qo'yilgan.

Jismoniy harakati cheklangan saylovchilarning imkoniyatini e'tiborga olgan holda binolarda nishab yo'laklari ham mavjud. Joylarda targ'ibot ishlarini olib borish maqsadida, saylov uchastkalariga yo'naltiruvchi ko'rsatkichlar, chaqiruv plakatlar, saylovga oid stendlar va boshqa targ'ibot materiallari belgilangan tartibga asosan o'rnatilgan.

Shuningdek, jamoat tartibini saqlash, saylov okruglari va uchastkalarini hududlarini favqulodda vaziyat-

lardan muhofaza qilish hamda yong'in xavfsizligini ta'minlash, saylov komissiyalari joylashgan binolarni uzluksiz elektr energiyasi bilan ta'minlash chora-tadbirlariga jiddiy ahamiyat qaratilgan.

Favqulodda vaziyatlar vazirligi xodimlari tomonidan barcha saylov uchastkalarining yong'inga qarshi holati tekshiruvdan o'tkazilgan bo'lib, profilaktik ko'riklar uyushtirilgan hamda birlamchi o't o'chirish vositalarining mavjudligi va gidrantlar, ularning yaroqlilik holatiga jiddiy ahamiyat qaratilgan. Kirish yo'laklaridagi qo'shimcha qurilishlar va belgilanmagan joylardagi avtomobillar turar joylari olib tashlangan. Bundan tashqari, ichki va tashqi yong'inga qarshi suv quvurlari, yoritish va elektr tarmog'ining sozligi tekshirilgan.

Saylovoldi targ'ibot-tashviqot jarayonlarida, tashkil etilayotgan trening hamda seminarlar davomida yong'in xavfsizligiga rioya etish muhimligi tushuntirilmoqda. Yong'indan ogohlantirish tizimi va aloqa vositalarining mavjudligi, sozligi va qo'llashga tayyorligi, elektr simlari, asbob-uskunalar va rozetkalar tekshirildi, o't o'chirgichlar shay holatga keltirildi.



## YANA BIR MUHMIM MASHG'ULOT

Favqulodda vaziyatlar vazirining birinchi o'rinbosari – Shtab boshlig'i polkovnik S.Zuparov rahbarligida Toshkent shahar Yashnobod tumanida joylashgan "Orient Logistik Center" MCHJning bojxona omborida maxsus-taktik o'quv mashqi o'tkazildi.



larning oldini olish, qutqaruv va fuqaro muhofazasi tuzilmalarining xizmat faoliyatlari sinovdan o'tkazildi.

Mashqlarini o'tkazish davomida mavsumga puxta tayyorgarlik ko'rish, avariya sodir bo'lganda tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etishni tashkil etish, avariya holatlarida hududiy bosh-

"Yonish va portlash xavfi yuqori bo'lgan kimyoviy moddalarni saqlash, tashishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishda FVDT xizmatlarining hamkorlikdagi harakatlari" mavzusi-

da tashkil etilgan mashq davomida favqulodda vaziyatlarda funksional vazifalarini bajarish yo'nalishlarini aniqlashtirishga jiddiy ahamiyat qaratildi. Bu turdagi mashqlar harbiy xizmatchilarga turli murakkab vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish hamda harakatlanishda qo'l kelishi ta'kidlandi. Yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlar va yirik avariya larning oldini olish hamda yong'in xavfsizligini ta'minlash tadbirlarini samarali tashkil etish bo'yicha muhim vazifalar bajarildi. 2024 – 2025-yillar kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko'rish, mavsum davomida issiqlik va energetika tarmoqlarini barqaror ishlashini ta'minlash borasidagi ishlarni takomillashtirishga qaratilgan amaliy harakatlar olib borildi. Jarayonda aholini favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarda talafot-

qaruv organlarining hamkorlikdagi harakatlarini takomillashtirish kabilarga alohida e'tibor qaratildi. Yuzaga kelgan favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etishda FVDT xizmatlarining hamkorlikdagi harakatlari ko'rib chiqildi.



Avariya-qutqaruv va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan vazifalarni bajarishda moddiy-texnik ta'minot masalalarini hal etish borasida zarur fikrlar bayon etildi. Sohadagi kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan kuz-qish mavsumida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish, avariya tiklash bo'linmalarining tayyorgarligi va boshqa zaruriy jihatlarni e'tiborga olish muhimligi ko'rsatib o'tildi.

Anvar QOBILOV tayyorladi.

## SAMARALI VAZIFALAR BAJARILMOQDA

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi mahkamasi va Termiz harbiy prokuraturasi xodimlari tomonidan viloyat Milliy gvardiya organlarining tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi mansabdor shaxslari ishtirokida o'quv seminar o'tkazildi.

Unda tergovga qadar tekshiruv o'tkazish tartibi Jinoyat-prosessual kodeksi va sohaga doir boshqa me'yoriy hujjatlar talablari yuzasidan fikr-mulohazalar almashildi.

Shuningdek, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasidagi tadbirlar davom ettirilib, harbiy qismlarning birida yoshlar ishtirokida "Ochiq eshiklar" kuni o'tkazildi.

Unda vatanga muhabbat va sadoqat, harbiy xizmat nufuzi, Qurolli Kuchlardagi islohotlar va umummilliy qadriyatlarimiz, buyuk ajdodlarimiz va ma'rifatparvar jadidlarimizning ma'naviy merosi haqida so'z bordi.

Bundan tashqari, Muzrobod tumanining "Shaffof" mahallasi yoshlari o'rtasida shashka va shaxmat musobaqalari tashkil etilib, g'oliblar munosib taqdirlandilar.

Qarshi harbiy sudi hamkorligida harbiy qismlarning birida tashkil etilgan ochiq muloqotda esa yo'l-transport hodisalarining ayanchli oqibatlarini haqida so'z bordi.

**Alisher AHMEDOV,**  
Termiz harbiy prokuraturasi katta tergovchisi,  
adliya podpolkovniki.

## FAOLIYAT

Nazorat hududidagi harbiy tuzilmalarda o'rganishlar olib borildi.

Ularda mavjud sharoitlar, hududda amalga oshirilayotgan qurilish-ta'mirlash ishlari va faoliyatga doir boshqa masalalarga e'tibor qaratildi.

Shuningdek, kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik, elektr va gaz tarmoqlarining mavsumga shayligi hamda energiya tejamkorlikni ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar o'rganildi.

O'rganishlar yakunida natijalar muhokama qilinib, mas'ullarga tegishli ko'rsatmalar berildi.

Shu bilan birga, shaxsiy tarkib bilan muloqot o'tkazildi.

Milliy gvardiya Xorazm

viloyati bo'yicha boshqarmasida esa profilaktik tadbir o'tkazilib, "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonun mohiyati, bu boradagi jinoyatlar va ular uchun belgilangan javobgarlik masalalari haqida so'z yuritildi.

Bundan tashqari, o'quvchilar ishtirokida o'tkazib kelinayotgan "Prokurorlik soati" tadbirlari davom ettirilib, Jaloliddin Mangubardi nomidagi harbiy-akademik litseyda "Yoshlar kelajagimiz" mavzusida uchrashuv tashkil etildi.

**Aziz ALIMKULOV,**  
Urganch harbiy prokurorining  
katta yordamchisi,  
adliya kapitani.

## HUQUQIMIZDAN FOYDALANAYLIK!

Ma'lumki, ushbu haftada, ya'ni 2024 yil 27-oktabr kuni O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi va mahalliy kengashlarga deputatlar saylovi o'tkaziladi.

FVV Akademiyasida ham 593-saylov uchastkasi tashkil qilingan bo'lib, saylovchilar uchun zarur sharoitlar yaratilgan. Saylovda Akademiya kursantlari ham faol ishtirok etadilar, albatta. Bizning munosib nomzodlar uchun bergan ovoqimiz ertaga xalqimiz va davlatimizning farovonligi uchun xizmat qiladi.

Shu o'rinda aytishimiz lozimki, Qonunchilik palatasi saylovlari ilk marta majoritar-proporsional (aralash) tizim asosida o'tkaziladi. Bu tizimda saylov okrugi bir mandatli va yagona saylov okrugi bo'linadi. Parlament quyi palatasi deputatlarining 75 nafari bir mandatli saylov okrugi bo'yicha majoritar tizim (nomzod uchun ovoz berish), qolgan 75 nafari proporsional tizim bo'yicha, ya'ni siyosiy partiyalarga berilgan ovoz-

lar asosida (partiya ro'yxati asosida) saylanadi.

Partiya ro'yxatiga kiritilgan nomzodlar ushbu siyosiy partiyaning a'zolari yoki partiyasiz bo'lishi mumkin. Boshqa siyosiy partiyaning a'zolari ushbu ro'yxatga kiritilishi mumkin emas, ya'ni deputatlikka nomzodlarni tanlash tartibi siyosiy partiyalar tomonidan belgilanadi.

Ayollarning soni bir mandatli saylov okrugi bo'yicha, shuningdek, partiya ro'yxati asosida siyosiy partiyadan ko'rsatilgan deputatlikka nomzodlar sonining kamida 40 foizini tashkil etishi kerak. Bunda partiya ro'yxatidagi ketma-ketlikda kamida har 5 nafar nomzodning ikki nafari ayol kishi bo'lishi lozim.

Saylov madaniyati insondan ulkan mas'uliyat, ishonch va faollikni talab qiladi. Shunday ekan, saylovda faol ishtirok etaylik!

**Baxshullo JAHONQULOV,**  
FVV Axborot xizmati boshlig'i.

## SHIDDATLI BAHLAR

Qarshi shahridagi "Qutqaruvchilar stert majmuasida" Favqulodda vaziyatlar vaziri kubogi" uchun o'tkazilib kelinayotgan musobaqalarning Qashqadaryo viloyati bosqichi tashkil etildi.

Musobaqaning ochilish marosimida so'z olganlar, bugungi kunda otaliqqa olingan yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini keng targ'ib etish, ularning qobiliyati va mahoratini namoyon etishlari uchun sharoitlar yaratib berish, "qutqaruvchilik" kasbiga qiziqtirish va bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish uchun tashkil etilayotgan bu kabi sport musobaqalarining ahamiyatini alohida ta'kidlab, barcha ishtirokchilarga omad tiladi.

Musobaqaga shahar-tumanlarning 2-sektoridagi saralash bosqichidan g'oliblikni qo'lga kiritgan 16 ta mahalla otaliqqa olingan yoshlaridan iborat jamoalar ishtirok etdi.

Yoshlar dastlab sportning voleybol va shaxmat



turlari bo'yicha o'z mahoratlarini ko'rsatishgan bo'lsa, arqon tortish, yong'in o'chirish estafetasi, dala sharoitida chodir tiklash hamda jabrlanganlarga birinchi yordam ko'rsatish shartlari esa yoshlarga o'zgacha shavq berdi.

Umumjamoaa hisobida 3-o'rin G'uzor tumani "Bo'ston" mahallasi yoshlariga, 2-o'rin esa Qamashi tumani "Qorasuv" mahallasi yoshlariga nasib etgan bo'lsa, o'zining tezkorligi bilan boshqa jamoalarga o'rnak bo'la olgan Qarshi shahridagi "G'ofur G'ulom" mahallasi yoshlari 1-o'rinni qo'lga kiritdi.

G'oliblar diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.

**Azizbek QUDRATOV,**  
Qashqadaryo viloyati FVB bo'lim boshlig'i.

## DAVRA SUHBATI



Qashqadaryo viloyati FVB va Adliya boshqarmasi mas'ullari hamkorlikda Dehqonobod tumanidagi "LUOK" MCHJ OYXTE bo'limi shaxsiy tarkibi ishtirokida "Huquqbuzarliklar profilaktikasi kuni" doirasida davra suhbati o'tkazildi.

Tadbir davomida mas'ullar tomonidan har bir xodim odob-axloq qoidalariga rioya qilishi, harbiy intizom buzilishiga yo'l qo'ymaslik, korrupsiyaviy holatlarning oldini olish, qolaversa, xizmat va xizmatdan tashqari vaqtlarda "Yo'l harakati qoidalariga" qat'iy amal qilish hamda "Manfaatlar to'qnashuvi" xususida tushunchalar berildi.

**T.TO'RAEV,**  
Qashqadaryo viloyati FVB  
ShXB boshlig'i, podpolkovnik.

## EHTIYOTSIZLIK

I.D. Mirobod maxsustrans" avtotransport filialida haydovchi bo'lib ishlagan. U joriy yilning 25 mart kuni Yakkasaroy tumani Usmon Nosir ko'chasidagi uylarning birida joylashgan chiqindixonaga oldiga o'zining boshqaruvidagi yuk avtomashinasida kelgan. Chiqindi olish uchun mashinani orqa tomonga harakatlantirgan vaqtida ehtiyotsizlikka yo'l qo'yib, shu yerda turgan piyoda F.X.ni urib yuborgan. Keyin avtomashinasidan tushib, hushsiz bo'lgan piyodani quduqdan olib chiqqan. So'ng esa shifoxonaga olib borgan. Shifokorlar tomonidan birinchi yordam ko'rsatilgan va darhol operatsiya jarayonlari boshlab yuborilgan.

Ko'rsatilgan tibbiy muolajalarga qaramasdan F.X. vafot etgan. Sud majlisida I.D qilmishidan chin ko'ngildan pushaymonligini, sodir qilgan harakatlarining oqibatini tushunib jabrlanuvchilarga

imkon qadar yordam ko'rsatib kelayotganligini, bundan keyin ham yordam ko'rsatishini, sodir etgan ehtiyotsizligidan pushaymondaligini bayon qilib, o'ziga nisbatan yengillik berishni so'radi.

Sudning hukmi bilan I.D. O'zbekiston Respublikasi JKning 266-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etganlikda aybdor, deb topildi. Unga 2 (ikki) yil muddatga muayyan huquqdan, ya'ni transport vositalarini boshqarish huquqidan mahrum qilgan holda 2 (ikki) yil muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlandi.

Shuning uchun yo'llarda ogoh bo'laylik. O'zimizni, atrofdagilar hayotini xavf ostiga qo'ymaylik.

**Alisher JALILOV,**  
Jinoyat ishlari bo'yicha Yakkasaroy tuman  
sudining raisi.

## ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

FVV Akademiyasi bilan IIV Akademiyasi o'rtasidagi hamkorlik memorandum doirasida ta'lim, ilm-fan va innovatsion faoliyat sohasida samarali hamkorlikni rivojlantirish va iqtidorli talaba-yoshlarni ilmiy-tadqiqot ishlariga yanada qiziqtirish maqsadida, O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining 35 yilligi munosabati bilan respublika ilmiy-amaliy konferensiya bo'lib o'tdi.

So'zga chiqqanlar tomonidan bahs-munozaralarga boy "Davlat tili - millat tili", "O'zbek tili: kecha, bugun va ertaga", "Ona tili - o'zlik timsoli", "Tillarni

o'rganishda zamonaviy yondashuv", "Hozirgi kunda oliy harbiy ta'lim muassasalarida o'zbek tili fan sifatidagi ahamiyati" va "Tillarni o'rganishda atamalarning o'rmi" kabi dolzarb mavzularda ma'ruzalar qilindi.

Konferensiya yakunida podpolkovnik M.Badalbayeva hamda kursantlar jamoasi faol ishtiroklari uchun IIV Akademiyasining sertifikatlari bilan taqdirlandilar.

**Rushana ROZABOYEVA**  
Uzjoku Harbiy jurnalistika  
yo'nalishi talabasi

## MEHNAT SAMARASIZ BO'LMAYDI



**Har kim uchun o'z umrining qadr-qimmatini bebaho hisoblanadi. Shunday bo'lsada, hayotda ba'zi insonlar shirin hayotini garovga qo'yib, o'zgalarga hayotini asrab qolish harakatida bo'ladilar. Qutqaruvchilik kasbi ana shunday fidoyilik va matonatni talab etadi.**

Favqulodda vaziyatlar vazirligi qutqaruv tuzilmalarida ana shunday mard, oliyanob va sadoqatli najotkorlar ko'pchilikni tashkil qiladi.

Sir emaski, siz nashrlarimiz orqali FVV tizimida o'zining fidoyiligi bilan xizmat vazifalarini bajarishda bor kuch va jangovar salohiyatini ishga solib, eng asosiysi, harbiylik qasamyodiga sodiq qolib kelayotgan qutqaruvchilar to'g'risida ko'p va xo'p o'qigansiz. Ularning ko'rsatgan jasoratlari xususida talaygina ma'lumotlarga ega bo'lgansiz.

Bugungi sahifamiz qahramoni oddiy askar Sherzod Alimov faoliyatida ham yuqoridagi sifatlar mujassam. Qutqaruvchimiz bilan suhbatlashar ekanmiz, uning samimiyligi, berilayotgan har bir savolga aniq, lo'nda, bir so'z bilan aytganda, harbiylarga xos tarzda qat'iyat bilan javob berishi e'tiborimni tortdi.

Ha, insonning hayotda bajaradigan vazifasi uning xarakteri, yurish turishi va tashqi dunyosiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Sherzod shunga bo'lsa kerak, jiddiy va vazmin, qat'iyatli, har bir ishni o'ylab, keyin amalga oshiradigan mulohazali yigit. Ammo u bilan muloqotga kirishsangiz, juda ham samimiy va xushchaqchaq yigit ekanligini anglaysiz.

Sherzod 1989-yilda Toshkent viloyati Zangiota tumanida tug'ilgan. 2009-yildan O'zbekiston Respublikasi IIV YOXB tizimida, 2020-yil yanvar oyidan FVV tizimida faoliyat yuritadi.

Hozirda FVV Maxsus vazifalar bo'yicha respublika qutqaruv markazi Qidiruv-qutqaruv otryadi qutqaruvchi-haydovchi vazifasida xizmat qilib kelmoqda.

Qahramonimiz intizomli, tirishqoq xodimlardan bo'lib, xizmat faoliyati davomida zimmasiga yuklatilgan vazifalarni vaqtida bajarib, Vatanimizga sadoqat va shijoat bilan faoliyat ko'rsatib kelayapti.

Sherzod Alimov ushbu faoliyati davomida ko'plab yong'in hodisalari va favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishda munosib ishtirok etib, ko'plab insonlarga umid va ishonch bag'ishlagan. Odamlarni hayotga qaytargan. O'nlab xonadonlarni, ob'yektlarni yong'in balosidan asrab qolishda matonat ko'rsatgan.

Masalan, 2020-yilning 11-oktabr kuni Uchtepa tumani Farhod ko'chasida Baypak tekstda, 2020-yilning 26-noyabr kuni Toshkent viloyati, Chinoz tumani, Eski Toshkent qo'rg'oni "O'zbekneftgaz" AJ bazasida, 2020-yil 30-noyabr kuni Zangiota tumani To'qimachilik ko'chasidagi xonadonlardan birida va yana boshqa ob'ektlarda sodir bo'lgan yong'inlarni o'chirishda fidoyilik namunalari ko'rsatgan.

Ma'lumki, 2023-yilning 6-fevral kuni Turkiya davlatida ro'y bergan kuchli zilzila va ularning vayronkor oqibatlarini butun dunyoni larzaga soldi. Voqea joyiga barcha davlatlar qatori O'zbekiston xaloskorlari ham tezlikda yetib borib, chinakam qardoshlik, do'stlik yordamini ko'rsatdilar. O'zbekistonlik qutqaruvchilar safida Sherzod ham bo'lib, safdoshlari qatorida vayrona ostida qolganlarni olib chiqish, ofat oqibatlarini bartaraf etishda tunu kun xizmat qilib, e'tirof va e'tiborga sazovor bo'ldi.

Sherzod doim o'z ustida ishlaydi. Xizmat va xizmatdan tashqari vaqtlarda tashkil qilinadigan barcha jamoatchilik tadbirlarida faol qatnashib, hamisha faollik ko'rsatadi. "Nega qutqaruvchilik kasbini tanlagansiz?" degan savolga hech ikkilanmay, bu azaldan uning orzusi bo'lganligi, hayotdagi muhim maqsadlaridan biri – insonlarga yordam ko'rsatish, ularning og'irini yengil

qilish, kerak bo'lsa, hayotini saqlab qolish ekanligini aytadi. Ha, qutqaruvchilik kasbi sharaflidir. O'z navbatida, mashaqqatli va xatarli ekanligini ham tan olish zarur. Sherzod sharaflidir ishi sari xizmatga ketarkan, uyidagilari, farzandlari, yaqinlari uni intiqlik bilan kutib o'tiradilar. Uni duo qiladilar. Chunki yong'in vaqtida uni o'chirishga, kimnidir yong'indan qutqarishga kirishgan insonning ham shu ofatdan omon qolishiga hech kim kafolat bera olmaydi. Bu ham bir jang. Jangda aql bilan aniq harakat qilinmas ekan, zarragina e'tiborsizlik yoki xato ulkan talafotlarga olib kelishi, buning badali esa salomatlik yoki bebaho ne'mat – umr bilan to'lanishi mumkin.

Sherzod bu haqiqatni doim yod-

Qahramonimiz buni aniq his etadi va shunga yarasha harakat qiladi. Shu sababli u ishtirok etgan qutqaruv operatsiyalarida safdoshlari bilan ulkan natijalarga erishib kelmoqda. Sherzod jamoada ham obro' e'tiborga ega. Barcha bilan samimiy muomalada bo'ladi, sofdil yigit. O'zgalarga qo'lidan kelgancha yordam beradi, yoshlarga ustozlik qiladi. Nima bo'lganda ham, o'z xizmat faoliyati davomida sharaflidir kasbiga munosib bo'lishga, yaxshi ishlar qilishga intiladi.

Vazirlik markaziy apparatida mustaqilligimizning 33 yilligi munosabati bilan tantanali tadbir bo'lib o'tdi. Ushbu tadbir qahramonimiz Sherzod Alimovning hayotida bir umr unitilmas kun bo'lib qoldi. Chunki shu kuni davlat mukofoti bilan taqdirlanganlar orasida u ham bor edi-da.



da tutadi. O'zi haydovchi-qutqaruvchi emasmi, har doim texnikaga, qutqaruv asbob-anjomlariga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'ladi. Ularni soz, sifatli va yaroqli tutishga intiladi. Chunki nosoz asbob – tilsiz dushman degan, naql bor xalqimizda. Qutqaruvchilarning ishini yengillashtirishda texnika va moslamalarning ahamiyati beqiyos, albatta.

Chaqiruv bo'lganda, ya'ni qutqaruv ekipaji shoshilinch yordamga chiqqanda tez va aniq harakatlanish, voqea joyiga o'z vaqtida ildam yetib borish, qutqaruvchilarga samarali ishlash uchun qulay imkoniyatlarni taqdim qilish haydovchi-qutqaruvchi zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Chunki favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishda boy berilgan sanoqli lahzalar o'zidan katta talafotlar qoldirishi turgan gap.

U o'zining xizmatiga bo'lgan sadoqati, fidoyiligi, shuningdek, aholi osoyishtaligi, insonlar xavfsizligi yo'lida olib borgan tinimsiz mehnati tufayli davlatimizning eng yuksak mukofotlaridan biri "Jasorat" medali bilan taqdirlandi.

Ha, xalqimizda mehnat samarasiz bo'lmaydi degan gapning naqadar haq ekanligi Sherzodning yutuqlari misolida yana bir bor o'z isbotini topgan bo'lsa ne ajab?

Qahramonimiz kabi fidoyi xaloskorlar bor ekan, xalqimiz xotirjamligi, hududlar obodligi ishonchli qo'llarda, deyish mumkin. O'z navbatida, matonatli xaloskorlarimizga qarata "Hamisha omon bo'ling, o'tyurak fidoyilar!" deb qolamiz.

**Masrur SANAYEV,**  
"Vaziyat" muxbiri.

## KELISHUVGA ERISHILDI

**FVV Akademiyasiga Germaniya, Ozarbayjon, Italiya kabi xorijiy davlatlar harbiy attashelari apparati va-killaridan iborat delegatsiya tashrif buyurdi.**

Tashrif doirasida delegatsiya a'zolariga Akademiya professor-o'qituvchilari va harbiy xizmatchilari tomonidan Akademiya axborot-resurs markazidagi mavjud o'quv adabiyotlar fondi va o'quv auditoriyalari, o'quv jarayonlari, moddiy-texnik bazasi, ilmiy faoliyat va o'quv sport komplekslari yaqindan tanishtirildi.

Shuningdek, ishg'ol qilish narvoni orqali o'quv minorasining 4-qavatiga chiqish, jabrlanuvchini qutqarish mashqlari, kuch va vositalarning yoyilishi bo'yicha taktik mashg'ulotlari namoyish etildi.

Shundan so'ng, Akademiya majlislar zalida ilmiy faoliyat va ta'lim-tarbiya yo'nalishida bir qator masalalar xususida atrof-



licha muzokara bo'lib, unda Akademiya boshlig'i o'rinbosari podpolkovnik Azizbek Latifjonov akademiya faoliyati bo'yicha videorolik orqali ma'lumotlarni bayon etdi. Ta'lim yo'nalishida kelgusida olib boriladigan bir qator hamkorlikdagi amaliy masalalar yuzasidan kelishib olindi.

Tashrif yakunida delegatsiya a'zolariga Akademiya boshlig'i general-mayor Ravshan Haydarov tomonidan esdalik sovg'alari tantanali topshirildi.

**Farhodjon XOJAYEV,**  
FVV Akademiyasi katta o'qituvchisi.

## ZAMON BILAN HAMNAFAS



Hozirgi vaqtda kun davomida sarflagan energiyamizni hisoblovchi, amalga oshirgan ishlarimizni tahlil qiluvchi, qon bosimimizni o'ldaydigan, qadamimizni va sarflayotgan energiyamizni hisoblab berayotgan "Aqlli soatlar", bizga GPS manzili bo'yicha yo'l ko'rsatayotgan "Aqlli xaritalar", ma'lumotlarni qayta ishlovchi turli qidiruv dasturlaridan kun sayin foydalanish ortib bormoqda. Ushbu loyihalarni "Qamchiq" dovoni hududiga tatbiq etish maqsadida, shaxsiy tarkib Toshkent shahridagi "IT park"lar bilan tanishdi. Dovon hududidan o'tgan strategik ahamiyatga ega A-373 "Toshkent-O'sh" avtomobil yo'li orqali transport vositalari haydovchi va yo'lovchilarini xavf-xatarsiz harakatlanishini ta'minlashda sodir bo'layotgan tabiiy hamda texnologiyatli favqulodda vaziyatlar xususan, yo'l-transport hodisalarining kelib chiqish sabablari va ularning oldini olish bo'yicha yaratilgan ma'lumotlar bazasi asosida mazkur sun'iy intellekt orqali prognoz axborotlarni ishlab chiqish bo'yicha mutaxassislar bilan hamkorlik olib borildi.

Dovonda sun'iy intellektni rivojlantirishga qaratilgan loyihalar zahirida ham aholiga ko'rsatilayotgan amaliy yordamlar, sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish, fuqarolarning jabrlanishi va ularning xavfsiz harakatlanishini ta'minlashdek ezgu maqsad mujassamdir.

**A. QUDRATOV,**  
"Qamchiq" MQYOQB bo'lim boshlig'i,  
kichik serjant.

## SHAXBOZNING YUTUG'I



Qozog'iston Respublikasining Baykanur shahrida "Raketamobil" sport turi bo'yicha "Ipak yo'li kubogi" xalqaro musobaqasi hamda O'zbekiston ochiq kubogi musobaqasi bo'lib o'tdi. Ushbu sport tadbirida Rossiya Federatsiyasi, Tojikiston, Qozog'iston hamda Qirg'iziston Respublikasi jamoalari ham qatnashdilar.

Mazkur tadbirda 20 ga yaqin sportchi ishtirok etib, g'oliblik uchun kuch sinashdi. Musobaqada O'zbekiston milliy terma jamoa tarkibida hamyurtimiz, aniqrog'i "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ va "Navoiyuran" davlat korxonasi ob'ektlarida yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish markazi 6-yong'in-qutqaruv qismi qutqaruvchisi oddiy askar Shahboz Bafoyev ham munosib ishtirok etib, S-3-A (raketani uchirib, qayta qo'ndirish) yo'nalishida birinchi o'rinni qo'lga kiritdi.

Shahboz Bafoyev 1998 yilda Buxoro viloyatining G'ijdivon tumanida tug'ilgan. Umumta'lim maktabini tamomlagach, 2019-2023 yillarda Buxoro Davlat Universitetining madaniyat fakultetida tahsil olgan.

Shu o'rinda Shahboz Bafoyevning kelgusi xizmatida hamda musobaqalarida ulkan zafarlar tilab qolamiz.

**Ma'rufjon HAYITOV,**  
"Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ va  
"Navoiyuran" DK O'YOXTTEB kichik inspektori,  
katta serjant.

Samarqand viloyat FVB Hayot faoliyati xavfsizligi o'quv markazi xodimlari hamda M.Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti Mehnat muhofazasi va salomatlik muhandisi kafedrasida professor-o'qituvchilari, talabalari hamda mazkur universitet qoshidagi akademik litseyi pedagog va o'quvchilari bilan o'quv seminar o'tkazildi.

## IJOBIY ISHLAR

Tadbirda Mehnat muhofazasi va salomatlik muhandisi kafedrasida mudiri Z.Yasakov tadbir ishtirokchilariga kun tartibida qo'yilgan masalalarning mazmun-mohiyati, ushbu tadbirdan ko'zlangan asosiy maqsadlar yuzasidan atroficha fikr bildirdi.

Tadbir davomida Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2015 yil Yaponiyada bo'lib o'tgan Tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish bo'yicha III Butunjahon konferensiyasida qabul qilingan "2015 – 2030-yillarga mo'ljallangan ofatlar xavfini kamaytirish bo'yicha Senday hadli dasturi" doirasida viloyatda olib borilayotgan ishlar xususida so'z yuritildi. Tabiiy ofatlar ta'siri ko'lamini kamaytirish bo'yicha hukumatimiz tomonidan qabul qilingan hujjatlar doirasida bugungi kunda olib borilayotgan ishlar yuzasidan ma'lumotlar berildi.

**Baxtiyor MIRZAQOBILOV,**  
**Anvar TURDIQULOV,**  
Samarqand viloyati FVB HFO'M o'qituvchilari.



## MAKTABLARDA TARG'IBOT

FVV Boshlang'ich tayyorgarlik va malaka oshirish markazi o'qituvchilari tomonidan Samarqand shahridagi 48- va 51-umumta'lim maktablari hamda Samarqand tumanidagi 10- va 16-umumta'lim maktablarida "Favqulodda vaziyatlarda insonlarni qutqarish — muqaddas burch" mavzusida targ'ibot ishlari olib borildi.

Mashg'ulotlar davomida o'quvchilarga favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishda qutqaruv xizmati, qutqaruv ishlari, qutqaruv tuzilmalari hamda favqulodda vaziyatlar ro'y berganda insonlar hayotini asrab qolishda qutqaruvchilarning harakatlari to'g'risida ma'lumotlar yetkazilib, tushunchalar berildi.

**U. JUMANOV,**  
FVV Boshlang'ich tayyorgarlik va malaka oshirish  
markazi sikli katta o'qituvchisi, podpolkovnik.  
**SH. MAMATKULOV,**  
sikl o'qituvchisi, mayor.

## DASTUR DOIRASIDA

"Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi ijrosini ta'minlash borasida Qashqadaryo viloyati FVB mas'ullari Yakkabog' va Chiroqchi tumanlaridan birlashtirilgan ijtimoiy ro'yxatda turuvchi oilalarda uyma-uy yurib, o'rganishlar olib bordilar.

Jarayonda, boshqarma boshlig'ining birinchi o'rinbosari – Shtab boshlig'i podpolkovnik M.Ostonov tomonidan Yakkabog' tumanining "Yoshlik" mahallasi hamda boshqarma boshlig'ining o'rinbosari podpolkovnik O'.Hakimov tomonidan esa Chiroqchi tumanining "Yangiobod" mahallasida yashovchi oilalarning muammolari o'rganilib, ularni hal etish choralari belgilab olindi.

**Qashqadaryo viloyati FVB axborot xizmati.**

## MUSOBAQA



Namangan viloyati FVB Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi hamkorligida 2-sektordagi boshqarma tomonidan otaliqqa olingan yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini keng targ'ib etish, ularning qobiliyati va mahoratini namoyon etishlari uchun sharoit yaratish hamda bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida "Yurtning kuchi – birlikda, qadri esa tinchlikdadir" shiori ostida "Favqulodda vaziyatlar vaziri kubogi" sport musobaqalari va ko'rik-tanlovlarning viloyat bosqichi o'tkazildi.

Musobaqada yoshlar voleybol, arqon tortish, shaxmat, yong'in o'chirish estafetasi, dala sharoitida chodir tiklashni amalda va jabrlanganga birinchi yordam ko'rsatish yuzasidagi savollarga javoblar berib, amalda o'z harakatlarini ko'rsatdilar. Yakuniy natijalarga ko'ra, 1-o'rinni Pop tumani, 2-o'rinni Kosonsoy tumani hamda 3-o'rinni Yangi qo'rg'on tumani jamoalari qo'lga kiritdi.

G'olib va sovrindorlar viloyat FVBning diplom, kubok va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.

**Oybek TOSHTEMIROV,**  
Namangan viloyati FVB boshlig'i o'rinbosari,  
polkovnik.

## KUN TARTIBIDA MUHIM MASALA



"Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ va "Navoiyuran" Davlat korxonasi ob'ektlarida yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish markazi va uning quyi tizimlarida xizmat qilyotgan bo'lim tezkor navbatchilari va barcha yong'in-qutqaruv qism dispetcherlari ishtirokida xizmat yo'nalishi bo'yicha seminar o'tkazildi.

Tadbirni markaz boshlig'i o'rinbosari podpolkovnik Alijon Navro'zov kirish so'zi bilan boshlab, kun tartibidagi muhim masalalar bilan tanishtirar ekan, undagi asosiy mavzulardan bo'lgan yo'nalishlarni aytib o'tdi.

Seminarda mas'ul xodimlar tomonidan "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ va "Navoiyuran" DKga qarashli toifalangan ob'ektlarda yong'in xavfsizligini ta'minlash, sodir bo'lgan yong'inlarni o'z vaqtida va tezkorlik bilan bartaraf etish, targ'ibot-tashviqot ishlarining sifati va samaradorligini kuchaytirish yuzasidan soha xodimlariga tegishli topshiriq va tavsiyalar berib o'tildi.

Bundan tashqari, hozirgi kunda dispetcherlik xizmatida sodir bo'lgan barcha turdagi ma'lumotlarni olinishida va xabar berilishida uchrayotgan ba'zi bir kamchiliklar muhokama qilindi. Ishtirokchilar soha o'zlarining qiziqtirgan barcha savollariga to'liq javoblar oldilar.

**Bahodir USMONOV,**  
JKB va NSMOYOXTTEB boshlig'i o'rinbosari  
podpolkovnik  
**Ma'rufjon HAYITOV,**  
markaz kichik inspektori, katta serjant.

Ma'lumki, shu yilning 14-17 oktabr kunlari "Qamchiq" dovoni hududida birinchi qor yog'ib o'tdi. Bunday paytda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish, yuzaga kelganda oqibatlarini zudlik bilan bartaraf etish va xavfsizlikni ta'minlash maqsadida, kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar amalga oshirildi.

## DOVONDAGI XAVFSIZLIK



Shu kunlari dovon hududida faoliyat olib boruvchi FVDT xizmatlarining rahbarlar tarkibidan navbatchilik tashkil etish, kuch va vositalarni "Kuchaytirilgan ish rejimi"ga o'tkazish hamda ularning kechayu-kunduz navbatchiligini ta'minlash to'g'risida "Qamchiq" MQYOQBning maxsus xabarnomasi yuborildi.

Avtomobil yo'lining 228,9 km. va "Shimoliy" aylanma yo'lining kirish qismi hamda temir yo'lining 7- va 69-km.larida qo'shimcha kuzatuv postlari tashkil etilib, aloqa vositalari bilan ta'minlandi.

"Qamchiq" dovonida kuz-qish mav-

sumida transport vositalarining uzluksiz va xavfsiz harakatlanishini ta'minlash maqsadida sirpanchiqqa qarshi qum va tuz zahiralari yaratildi. IIV JXD YHXX "Qamchiq" dovoni bo'yicha alohida otryadi mutaxassislari bilan hamkorlikda "Chinor" va "Sherobod" YPX maskanarida xavfli yuk tashuvchi transport vositalari haydovchilari bilan profilaktik tushuntirish ishlari o'tkazildi.

"Qamchiqavtoyoyol" ixtisoslashtirilgan yo'llardan foydalanish korxonasi davlat muassasasi tasarrufidagi 103 ta maxsus texnika va mashina-mexanizmlar 2024-2025-yil kuz-qish mavsumida qishki qarov ishlariga jalb etilgan bo'lib, shundan 62 ta mashina-mexanizm va 41 ta maxsus texnikalar yordamida avtomobil yo'lga qum-tuz aralashmasini sepish ishlari tashkillashtirildi.

**A.QUDRATOV,**  
"Qamchiq" MQYOQB bo'lim boshlig'i, kichik serjant.

## O'RGANISHLAR

Havo sovishi bilan isitish pechlaridan noto'g'ri foydalanish va loqaydlik sababli aholi xonadonlarida is gazidan zaharlanish va boshqa yong'in bilan bog'liq ko'ngilsiz holatlar ko'payib boradi. Achinarlisi, buning oqibatida insonlar qurbon bo'ladi. Ko'ngilsiz holatlarning oldini olish maqsadida nosoz gaz plitalari va shlanglaridan qat'iy foydalanilmaslik, aniqlangan nosozliklarni tezda mutaxassislarni jalb etgan holda bartaraf etish choralarini ko'rish, dudbo'ronlarni mavsum boshlanishidan oldin tozalash

ishlarini amalga oshirish zarur.

Oshxonada o'rnatilgan tabiiy gazda ishlovchi gaz plitalaridan xonalarni isitish maqsadida foydalanilmaslik, yashash xonadonlaridagi elektr tarmoqlarida va elektr qurilmalarida aniqlangan qisqa tutashuv va nosozlik holatlarini mutaxassislarni jalb qilgan holda bartaraf etish choralarini ko'rish kerak.

**H.SHARAPOV,**  
Qarshi shahar FV bo'limi smena boshlig'i, kapitan.

## TEZKOR YIG'ILISH

Chust tumani FV bo'limi 25-26-yong'in-qutqaruv qismi shaxsiy tarkibi ishtirokida yo'l harakati xavfsizligi qoidalariga rioya qilish bo'yicha tezkor yig'ilish bo'lib o'tdi.

Yig'ilish davomida tizimda sodir bo'layotgan yo'l harakati xavfsizligi qoidalarini buzilish holatlari bo'yicha muhokama qilindi. Harbiy xizmatchilar va xizmatchilar tomonidan xizmat yuzasidan avtotransport vositalaridan foydalanish, ta'mirlash hamda hisobdan chiqarish, ularni yillik yo'l bosish limit va yoqilg'i-moy mahsulotlari sarf



me'yorlaridan foydalanish bo'yicha tushunchalar berildi.

**Oybek UMAROV,**  
Chust tumani FV bo'limi qism boshlig'i, katta leytenant.

## ZARUR TADBIRLAR

Qashqadaryo viloyati FVB va Qarshi tumani FV bo'limi mas'ullari tomonidan tumandagi "Yangi O'zbekiston" loyihasi bo'yicha qad rostlayotgan ko'p qavatli uylarda profilaktik tadbirlar o'tkazildi.

Tadbirda mutaxassislar tomonidan qurilishda yong'in xavfsizligi qoidalariga amal qilish, favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakatlanish va birlamchi yong'in o'chirish vositalaridan foydalanish tartiblari o'rgatildi.

Qolaversa, mas'ullar tomonidan binolarda yong'inga qarshi talablar holati o'rganilib, binolar uchun yong'inga qarshi suv ta'minotini yaxshilash va yong'indan xabar berish qurilmalari bilan ta'minlash yuzasidan muhandis-texnik xodimlariga zarur tavsiyalar berildi.

**S.ATABAYEV,**  
Qashqadaryo viloyati FVB bo'lim boshlig'i, mayor.

## PROFILAKTIKA

Shu yilning sentabr, oktabr oy-lari davomida FVV Fuqaro muhofazasi instituti professor-o'qituvchilari t.f.n. professor O'.Yuldashev, dotsent A.Tursunov hamda katta o'qituvchi R.Sobirovlar tomonidan "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti va "Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti" professor-o'qituvchi va talabalari, M.Ulug'bek tumanidagi "Alisherobod", "Chingildi",

"Iqtidor" MFYlarida, 343 – 344-umumta'lim maktablari o'qituvchi va o'quvchilari bilan "Favqulodda vaziyatlar tasnifi va zilzila vaqtida to'g'ri harakatlanish, is gazidan saqlanish va yong'inning oldini olish, sodir bo'lganda birlamchi o't o'chirish vositalarida to'g'ri foydalanish" mavzulari bo'yicha nazariy va amaliy suhbat o'tkazilmoqda.

**X.AZIMOV,**  
FMI katta o'qituvchisi.

## HAMKORLIKDAGI SINOV

JG'MHO, FVB, MG, DXX Chegara qo'shinlaridagi RK vaTB muhofaza yo'nalishida amaliy-o'quv mashqi o'tkazildi.

Unda shartli radiatsion manbani xavfsiz joyga o'tkazish, bu haqda tegishli xizmatlarga xabar qilish, uning zarar yetkazish masofasini aniqlash hamda tuzilmalarning radiatsion, kimyoviy va tibbiy-biologik muhofaza guruhlari tomonidan aniqlangan manbani zararsizlantirish borasidagi bilimko'nikmalari sinovdan o'tkazildi.



**A.ASADULLAYEV,**  
Qashqadaryo viloyati FVB bo'limi boshlig'i, podpolkovnik.

## YO'RIQNOMALAR O'TKAZILDI

"UzAuto Motors" AJ Xorazm viloyati filialida uzluksiz ishlash jarayonida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish asosiy vazifa sanaladi.

Shu jumladan filialning barcha sexlari, uchastkalari va omborlarida kuz-qish mavsumiga chuqur tayyorgarlik ko'rib, mavjud birlamchi yong'in o'chirish vositalari, avtomatik tarzda yong'in o'chirish qurilmalari soz ishchi holatga keltirildi. Filialning bo'yoqlash, payvandlash, presslash hamda

yig'uv sexlari ishchi-xizmatchilari bilan yong'in sodir bo'lganda harakat qilish tartibi bo'yicha doimiy ravishda suhbat va yo'riqnomalar o'tkazilib kelinmoqda. Bunday profilaktik uchrashuvlar sodir bo'lishi mumkin bo'lgan har qanday baxtsiz hodisalarning oldini olishda katta yordam ko'rsatadi.

**D.SAFAROV,**  
Xorazm viloyati FVB "UzAuto Motors" AJ OYXTEB inspektori, kapitan.

## MASHQ

Andijon viloyatidagi Bosh avtoshox bekatida "Avtovokzal va avtostansiyalarda sodir bo'lgan yong'inlar hamda boshqa favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish bo'yicha hamkorlikdagi harakatlari" mavzusida maxsus-taktik o'quv mashqi o'tkazildi.

Mazkur o'quv shartli ravishda 4 ta o'quv nuqtada, avtobusda kelib chiqqan yong'in-chaqnashni o'chirish, qutqarish va birinchi tibbiy yordam ko'rsatish, avariyaning bartaraf etish hamda jamoat



tartibi va harakat xavfsizligini ta'minlash jarayonlari amaliy bajarildi.

**Baxtiyor GAPPAROV,**  
Andijon shahar FV bo'limi inspektori, kapitan.

## TUNGI NAZORAT

Andijon viloyati FVB tomonidan viloyatda kuz-qish mavsumini betalafot o'tkazish, hududlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ko'ngilsiz vaziyatlarning oldini olish maqsadida kuchaytirilgan tartibda tungi profilaktik tadbirlar o'tkazilmoqda.

Tadbirlar davomida aniqlangan kamchiliklar tegishliligi bo'yicha mutasaddi tashkilotlar tomonidan bartaraf etilib, ishchi-xizmatchi va fuqarolarga



zarur tushuncha, tavsiyalar berilmoqda.

**Hayotbek RAHIMOV,**  
Andijon viloyati FVB axborot xizmati boshlig'i, kapitan.

## O'QUV-AMALIY SEMINAR

Qashqadaryo viloyati FVBda "Tabiiy xususiyatli favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda va sodir bo'lish xavfi tug'ilganda aholining harakati" mavzusida o'quv-amaliy seminari o'tkazildi.



Tadbirni viloyat FVB boshlig'ining birinchi o'rinborsari – Shtab boshlig'i podpolkovnik M.Ostonov kirish so'zi bilan ochdi.

Shundan so'ng, Qashqadaryo gidrometeorologiya markazi bo'lim boshlig'i A.Tojiyev, Qarshi kuzatish stansiyasi bosh muhandisi Y.Ro'ziboyev, boshqarma bo'lim boshlig'i podpolkovnik O.Rahmonov hamda Hayot faoliyati xavfsizligi o'quv markazi o'qituvchilarining ma'ruzalari tinglandi.

Ma'ruzalar davomida mavzu oid videoroliklar namoyish etilib, ishtirokchilar tomonidan tushgan savollarga atroflicha javoblar berildi.

Qutqaruv otryadi va yong'in-qutqaruv qismining maxsus asbob-anjomlari va texnikalari bilan yaqindan tanishtirildi, favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishga qaratilgan amaliy mashqlar bajarildi.

**I.MUQIMOV,**  
Qashqadaryo viloyati FVB HFXO'M  
o'qituvchisi.  
**J.RAHMONOV,**  
o'qituvchi.

## OBODONLASHTIRISH ISHLARI

"Qamchiq" maxsus qidiruv, yong'in-qutqaruv boshqarmasining "Beshqo'l", "Qamchiq", "Chodak", "Rezak" navbatchilik maskanlari hamda yong'in-qutqaruv otryadlarida keng ko'lamli obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi.

Qutqaruvchilar uchun berilgan yangi uylar atroflarini obodonlashtirish ishlarida harbiylarning oila a'zolari ham munosib qatnashdilar.

Tadbir davomida ariqlar tozalandi, daraxtlar oqlandi, yerlarga ishlov berilib, begona o'tlar olib tashlandi. Chiqindilar maxsus joylarga chiqarilib, qulay sharoit yaratildi.

**A.AMINOV,**  
"Qamchiq" MQYOQB QO komandiri,  
podpolkovnik.

## MAHALLA FAOLLARI BILAN

Toshkent viloyati FVB "Ko'ksaroy" qarorgohi YX-TTEB profilaktika inspektorlari tomonidan Qibray tumani "Nurafshon" va "Yuqori-yuz" MFY faollari bilan mahallalar hududida yashovchi aholi xonadonlarida kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko'rish va yong'inlarning oldini olish borasida hamda saylovoldi targ'ibot-tashviqot ishlari olib borildi. Uchrashuv davomida mahalla faollariga yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilish borasida aholi o'rtasida o'tkaziladigan tushintirish ishlarida mahalla faollarining alohida o'rni borligi ta'kidlandi.

**R.SHOKIROV,**  
Qibray tumani OYXTTEB inspektori, kapitan.

Yangihayot tumani FV bo'limining 21-yong'in qutqaruv qismida "Ochiq eshiklar kuni" tashkil etildi.

## "OCHIQ ESHIKLAR"

Ushbu tadbirda 304-umumta'lim maktabining o'quvchilari ishtirok etdi. Ularga favqulodda vaziyatlar yoki yong'in sodir bo'lganda to'g'ri harakatlanish, jabrlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha tushunchalar berildi. Bu orqali tadbirda ishtirokchilarning bilim va ko'nikmalari yanada oshirildi.

**S.TURSUNOV,**  
Yangihayot tumani FV bo'limi boshlig'i,  
podpolkovnik.

## TIZIMLI ISHLAR

Tegishli xizmatlar bilan hamkorlikda aholi yashash xonadonlarida uy-uy yurib, profilaktik tadbirlar o'tkazilmoqda. Yong'in xavfsizligini ta'minlash maqsadida tashkil etilayotgan davra suhbatlari ko'rgazmali chiqishlar davomida yong'inlarni keltirib chiqaruvchi holatlardan ehtiyot bo'lish, nosoz elektr moslamalaridan foydalanmaslikni targ'ib qiluvchi eslatmalar tarqatilib, tushuntirish ishlari olib borilmoqda. Fuqarolarga elektr va gaz uskunalaridan foydalanishda ularning sozligiga, birinchi galda, sovitish konditsionerlari va shu kabi boshqa maishiy elektr jihozlardan foydalanishda yong'in xavfsizligi qoidalariga qat'iy amal qilishga e'tibor qaratilishi tushuntirilmogda.

Tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan obyektlarda yong'in-profilaktika ko'rikleri tashkil etilmoqda. Olib borilgan profilaktik tadbirlar davomida obyektlarning yong'inga qarshi holati tekshiruvdan o'tkazilmoqda.

**Q.RIXSIYEV,**  
Toshkent shahar FVB inspektori,  
mayor.



## CHEGARAOLDI MASHQ

"Shovot temir-beton" xususiy korxonasi tomonidan qurilish ishlari olib borilayotgan O'zbekiston-Turkmaniston chegaraoldi savdo markazida maxsus-taktik o'quv mashqi o'tkazildi. Unda fuqaro muhofazasi tuzilmalari hamda FVDT xizmatlarining favqulodda vaziyatlarning oldini olish, ularni bartaraf etish va oqibatlarini tugatishga qaratilgan hamkorligini takomillashtirish, qurilish jarayonida yong'in xavfsizligini ta'minlash, zilzila, yong'inlar hamda favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish bo'yicha bilim va ko'nikmalar oshirildi.

**R.QADAMBOYEV,**  
Shovot tumani FV bo'limi bo'linma katta inspektori,  
kapitan.

## YONG'INGA QARSHI

Namangan viloyati Davlatobod tumani hududidagi mavjud 119 dona yerosti suv olg'ichlarining 15 tasini nosozligi aniqlandi. 10 tasidagi aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish choralari ko'ridi. Yerosti suv olg'ichlarning ko'rsatgich belgilari bilan ta'minlash, nosozlarini ta'mirlash ishlari davom ettirilmoqda.

**Akmal MUSAYEV,**  
Davlatobod tumani FV bo'limi DYON inspektori,  
katta serjant.

## MAVSUMGA SHAYLIK

Toshkent viloyati Chirchiq shahrida mavsumga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha tizimli ishlar tashkil qilingan.

Barcha ijtimoiy soha ob'ektlari, jumladan, umumta'lim maktablari, maktabgacha ta'lim muassasalari, sog'liqni saqlash sohasi ob'ektlari, ko'p qavatli turar joy binolarida mavjud kamchiliklar aniqlanib, ushbu kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf qilish yuzasidan qurilish-ta'mirlash hamda obodonlashtirish ishlari tashkil etilmoqda.

**F.YO'LDOSHYEV,**  
"MAXAM-CHIRCHIQ" AJ  
OYOXTEB inspektori, katta leytenant.

## MONITORING



Namangan viloyati Davlatobod tumani FV hamda veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limlari hamda tuman SEO va JTS tegishli bo'lim xodimlari bilan birgalikda tumandagi mavjud dehqon bozorlari hamda savdo do'konlarida aholi xavfsizligini ta'minlash maqsadida aholi o'rtasida ovqatdan zaharlanish, botulizm kasalligining oldini olish maqsadida profilaktik tushuntirish ishlari olib borilmoqda.

**Sardorbek ERKAYEV,**  
Davlatobod tumani FV bo'limi bo'linma boshlig'i,  
kapitan.

## TUSHUNTIRILMOQDA

Yong'inga qarshi kurashning asosiy omillaridan biri, uni o'z vaqtida aniqlash va yong'in kuchayib ketmasdan oldin unga qarshi chora-tadbirlarni amalga oshirishdir. Bunda aloqa vositalari va signalizatsiyalardan foydalanish yaxshi natija beradi. Yong'in xavfsizligi qoidalarini talablarini targ'ib qiluvchi eslatma, yo'riqnoma va plakatlar tarqatilmogda. Tekshiruv va ko'riklar davomida aniqlangan yong'inga qarshi kamchiliklar bartaraf etilmogda.

Yong'in-qutqaruv qismlari shaxsiy tarkibi tomonidan favqulodda vaziyat yoki yong'in sodir bo'lganda to'g'ri harakatlanish tartibi va qutqaruv ishlarini tashkil etish bo'yicha yong'in o'chirish amaliy-taktik mashqi va odamlar ommaviy yig'iladigan maskanlarda yong'in qutqaruv texnikalari va vositalari namoyish etilmogda.

**M.MIRZAOLIMOV,**  
Toshkent shahar FVB kichik inspektori,  
kichik serjant.

## TARG'IBOT

Qashqadaryo viloyati FVB va uning hududiy bo'limlari tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy obyektlar, ta'lim va davolanish muassasalari, korxonalar, idora, tashkilotlarda uchrashuv va davra suhbatlari, targ'ibot-tashviqot, seminarlar, ochiq eshiklar kuni, ko'rgazmali amaliy mashg'ulot tadbirlari o'tkazildi.

**O.RAHMONOV,**  
Qashqadaryo viloyati FVB bo'lim boshlig'i,  
podpolkovnik.  
**O'.YULDASHEV,**  
Dehqonobod tumani FV bo'limi bo'linma boshlig'i,  
mayor.

# MA'RIFIY ISLOHOTLAR VA MA'NAVIY BARKAMOL INSON TARBIIYASI

Ma'naviyat va ma'rifat azaldan inson hayoti uchun mustahkam qalqon vazifasini o'tab kelayotgan beqiyos kuchdir. Bu ikki mustahkam tayanchsiz jamiyat va davlat yuksak taraqqiyotga erisha olmaydi. Ma'naviyati, ma'rifati, imon-e'tiqodi butun xalq kelajakda buyuk davlat barpo eta oladi.

Darhaqiqat, jamiyatimiz bugungi kunda jadal tub o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Bunday davrda har birimizga mustahkam tayanch zarur. Ma'naviy va madaniy qadriyatlar, me'moriy yodgorliklar, umuman olganda, ajdodlarimizning boy madaniy va ma'naviy merosi ana shunday tayanch bo'lib, xalqni, millatni birlashtirib olg'a harakatlantiradi. Bu esa yoshlarimizning ma'naviy, axloqiy jihatdan har tomonlama yetuk shaxs bo'lib shakllanishida, Vatanimizning yanada ravnaq topishida, shuning barobarida xalqimizning buyuk o'tmishidan faxrlanuvchi millat farzandlari bo'lib kamol topishlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston xalqining madaniy va ma'naviy merosi ming yillar davomida yaratilgan bebaho boylikdir. Shubhasiz, noyob asarlarda yuksak darajadagi ma'naviy-axloqiy qadriyatlar mujassamlashgan. Shu tufayli ham ajdodlarimizning buyuk xizmatlari nafaqat xalqimiz, balki dunyo hamjamiyati tomonidan keng e'tirof etilib, ularning nomlari manguga abadiylashtirilgan. Xususan, Belgiya, Latviyada Ibn Sino va Mirzo Ulug'bekka, Yaponiya, Rossiya, Ozarbayjonda Alisher Navoiyga, Misrda Ahmad Farg'oniya haykallar o'rnatilgan. Ajdodlarimizning xotirasiga hurmat bajo keltirish ham har birimizning muqaddas vazifamiz bo'lmog'i lozim. Bu borada qatag'on qurbonlarining begunoh xotirasini tiklash bo'yicha olib borilgan va olib borilayotgan ishlar katta ahamiyatga molik. Ular orasida ko'plab madaniyat arboblari, jadidchilik harakatining yo'l-boshchilari, shoir va yozuvchilar: Munavvarqori Abdurashidxonov, Mahmudxo'ja Behbudiy, Ajziy, Abdulla Avloniy, Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Hamza, Botu va boshqalarning unutilmas nomlari bor. Mustabid tuzum tomonidan jadidlarimizning ta'qib ostiga olinishi va qatag'on siyosatining qurboniga aylanishi respublika hayotida og'ir asorat qoldirdi.

Tarix saboqlari shuni ko'rsatadiki, xalqning jahon sahnidagi o'rini butunlay o'zgartirib yuborgan katta janglarda askarlarning ma'naviy darajasi yuksakligi, e'tiqod va irodasi mustahkamligi, jangovar ruhi balandligi, yovqurligi, vatanparvarligi, hamjihatliligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan. 1526-yilda yuz ming lashkar, shuningdek, jangovar fillarga ega qo'shinni 12 ming askar bilan yengib, Hindistonni zabt etgan Bobur Mirzo bobomiz so'zlarimizga misol bo'la oladi. Mazkur jangda ulug' sarkardaning mahorati bilan birga ma'naviy maslagi, o'z askarlarida jangovar ruhni, kelajakka ishonchni, qat'iyatni, madrlilik va jasoratni tarbiyalay olgani, birlamlikni, jipslikni qaror toptira bilgani muhim rol o'ynagan.

Yana shuni ham aytish kerakki, tarixda qaysiki qo'shin ma'naviy tarqoq bo'lsa, jangchilarning ruhiyati, imoni sust, axloqiy darajasi tuban bo'lsa, albatta, ular orasidan biror sotqin chiqqan, alal-oqibat shiddatli muhoraba buy berilgan, xalq qullikka, mutelikka mahkum qilingan. Bunday taqdir sabab hatto nomi tarix sahifalaridan o'chib ketgan millatlar ham, afsuski, kam emas.

Shu bois, xalqimiz yoshlarni tarbi-



yalashda, jismini chiniqtirish bilan bir vaqtda ularning ma'naviy-ruhiy barkamolligiga alohida e'tibor qaratgan. "Bilagi zo'r birni yig'ar, bilimi zo'r mingni", "Odob — oltindan qimmat", "Birlashgan o'zar, birlashmagan to'zar" kabi xalq maqollari ana shunday yondashuvlar mahsulidir.

Bugungi murakkab zamonda yoshlarni tarbiyalashda teran ildizlardan suv ichgan azaliy qadriyatlarimiz bilan birga, ularni ma'naviy uyg'otadigan, kelajakka ruhlantiradigan, ko'ngil ko'zini ochadigan, milliy g'ururini yuksaltiradigan badiiy asarlarga, kino va spektakllarga, diltortar kuy-qo'shiqlarga, amaliy va tasviriy san'at namunalari ehtiyoj tobora ortib bormoqda.

Xonandalarning tuturiqsiz kliplari, saviyasiz qo'shiqlari, maishiy mavzudagi seriallar, filmlarning kundan-kun ko'payib borayotgani haqida ham yuqoridagi kabi fikrlarni aytish mumkin. Talab bor — ular shunga monand nimadir tuhfa etishga harakat qilyapti. Haqiqiy san'at asarining yaratilishi uchun uni o'sha darajada tushunadigan, qabul qiladigan auditoriya ham bo'lishi kerak. Nimaga ko'pchiligimiz maqom ashulalarni eshitmaymiz. Chunki ularning mohiyatini tushunmaymiz, zamiridagi dardni his qilmaymiz, demak, maroq ham olmaymiz. Bu navolar qalbimizga yetib borishi, ularning mazmunini tushunishimiz uchun kitob o'qishimiz, bilimimizni boyitishimiz, badiiy didimizni yuksaltirishimiz kerak. Komil inson g'oyasi ma'naviy barkamol inson tushunchasining o'zi keng qamrovli, serqirra tushuncha. Ma'naviy barkamol inson — komil inson tushunchasi bilan hamohangdir. Ilmiy adabiyotlarda bu tushunchalar alohida-alohida ishlatilsa-da, mohiyatan ularning hammasi inson axloqi va odobini, ularda shakllangan barcha ijobiy xislatlarni, ularning insonlarga, jamiyatga va Vatanga bo'lgan munosabatlaridan tortib, toki oilaga, ota-onaga va boshqalarga munosabatlarining barcha qirralarini qamrab oladi.

Xalqimiz tarixida ziyoli, ma'rifatli kishilar ko'p bo'lganini yaxshi bilamiz. Ular o'rtasida o'qituvchi va murabbiylar, ustozlarning o'rni va ahamiyati katta. Chinakam ziyoli faqat aql va bilim emas, qalb va ma'naviyat egasi ham bo'lmog'i zarur. Umuman olganda, ziyoli deganda, insonga, ayniqsa, yoshlarga har tomonlama ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi shaxslar tushunilib, ular turli sohalarga mansub bo'lishlari mumkin. Ko'pincha, hayotda ta'lim-tarbi-

ya, ilm-fan, sog'liqni saqlash, davlat xizmati tizimlarida faoliyat ko'rsatayotgan fuqarolar ham ziyoli sifatida tushuniladi. Shuningdek, ziyoli shaxsga nisbatan tarixda o'ziga xos talablar mavjud bo'lgan. U oqil, dono va ma'rifatli bo'lsagina, butun vujudi, xatti-harakati, ijodiy faoliyati bilan ziyo va ezgulik tarata olsagina, ziyoli deb ataladi. Ziyoli insonlar, o'qituvchi va murabbiylar, ma'rifiy va ma'naviy masalalar bo'yicha mas'ul xodimlar, ilm-fan mutaxassislarining o'z vaqtida berayotgan amaliy yordamlari, to'g'ri va o'rinli maslahatlari tufayli mamlakatimizda tinchlik va osoyishtalik, o'zaro mehr-oqibat tuyg'ulari kuchayib bormoqda. Ayniqsa, yoshlarning mustaqil hayotga kirib borishi va jamiyatdan o'ziga munosib o'rin topishida ziyolilar faoliyatining ahamiyati katta bo'lmoqda.

Agar bir millat vakili o'z ajdodlarining ma'naviy merosidan butkul bebahra qolgan bo'lsa va muayyan sharoitda to'liq boshqa millat madaniyati ruhida tarbiya olsa, uni endi o'z millatining to'laqonli vakili deyish qiyin. Ammo eng yomon holat Sho'rolar davrida yuz berdi. Bu davrda sun'iy birlashtirilgan ulkan bir hududning barcha aholisi, millatidan qat'i nazar, kuchli va har taraflama tazyiq ostida muayyan maqsadlarda maxsus ishlab chiqilgan yolg'on mafkura ruhida majburiy "tarbiya" qilindi. Elat va millatlar doimo o'zaro turlicha munosabatda bo'ladilar va tarix davomida bir-birlariga ta'sir o'tkazib, o'zlarini ham, o'zgalarni ham ma'naviy boyitib boradilar. Ammo hech qachon, hech bir xalq o'zligidan butkul kechib, boshqa xalq ma'naviyati hisobidan o'zini boyita olgan emas. Yakka bir shaxs butkul o'ziga bir ma'naviy muhitda tarbiya topib, unga to'liq moslashishi mumkin. Bu inson tabiatiga xos narsa. Ammo bir xalq to'lig'icha o'zligidan kechib, o'ziga xalq ma'naviy dunyosini qabul qilsa, demak, unday xalq yo'q bo'ladi, o'z ma'naviy qiyofasini yo'qotgan millat yo'qolgan millatdir. Milliy ma'naviyatning takomili esa o'sha millatga mansub har bir shaxsning ma'naviy kamoloti bilan bevosita bog'liq va ushbu zaminga tayanib yuksaladi.

Hayot sur'atining tezlashuvi deb atalayotgan bugungi globallashuv sharoitida ma'naviy tarbiya iqtisodiy o'sish, ilmiy tafakkur, ma'rifiy yetuklik kabi tushunchalar qatorida yetakchi o'ringa ega bo'lib turibdi. Chunki ayni shu sohada yuzaga kelayotgan muammolar boshqa sohalardagi muammolar yechimiga borib taqaladi. Ma'naviy tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'ymay turib, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, jug'rofiy va ekologik muammolarni hal qilib bo'lmaydi. Chunki bu muammolarning kelib chiqishi umumma'naviy tarbiyada yuzaga kelgan bo'shliq, beparvolik bilan bog'liq. Bugun dunyoda iqtisodiy sohada — o'zga mintaqalardagi tabiiy boyliklar ustidan nazoratni qo'lga kiritish, mafkuraviy sohada — turli xalqlarning asrlar davomida shakllangan turmush tarzini o'z manfaatlariga yo'lida "isloh" qilish, yoshlar ongi va qalbini egallash, ularni to'g'ri yo'llardan chalg'itish kabi nosog'lom xatti-harakatlar tobora kuchayib bormoqda. Bunday harakatlar bir qarashda ko'zga uncha tashlanmaydigan, deyarli beozor bo'lib ko'rinadigan va hatto qiziqarli, jozibali shakllarda olib boriladi. Moddiy manfaatdorlik va'da qilinadi. Hayotiy tajribasi yetarli bo'lmagan yoshlar bunday "joziba"ga tez mahliyo bo'ladilar va o'zlari bilmagan holda kimlarningdir to'riga ilinib qoladilar. Yoshlarni bunday halokatlardan asrashda badiiy adabiyot, ma'naviyat va ma'rifat targ'iboti xalqoskor kuchga aylanadi.

Xalqning tarixiy hayoti hamda ruhiyatidagi xususiyatlar adabiyotning milliylik mazmunini tashkil etadi va o'ziga xos milliy shaklni yuzaga keltiradi. Milliy shaklni yuzaga kelishida adabiyot tomonidan uzoq davr mobaynida yig'ilgan tajriba va an'analarning ham ahamiyati katta bo'ladi. Xalqimizning ming asrga tatigulik xalq og'zaki ijodi namunalari — "Alpomish", "Go'ro'gli" dostonlari kabi qahramonlik, jasoratni tarannum etuvchi eposlar o'quvchining, yosh avlodning badiiy tafakkurini o'stirishga, ma'naviy dunyoqarashining boyishiga, Vatanga bo'lgan muhabbat va faxrlanish hissini yanada oshirishga xizmat qiladi. Chunonchi, mamlakatimiz yoshlari uchun xalq og'zaki ijodi mardlik va jasorat namunalari shakllantirishda katta turtki bo'ladi. Ularning ona Vatanga bo'lgan sadoqat ramzi yanada kuchayadi, uning tinch va osoyishta faoliyat ko'rsatishini ta'minlash uchun, kerak bo'lsa jonini fido qilishga — To'maris, Shiroq, Temir Malik, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temir kabi milliy qahramonlarimizdan namuna oladi, hamisha sergak va ogoh bo'ladi.

Anvar QOBILOV tayyorladi.

## CHAQMOQ SALTANATI

Venesuelada Katatumvo daryosining Markayba ko'liga quyilish hududida sirli hamda chiroyli tabiat manzarasi - chaqmoq hodisasi ro'y berib turadi. Olimlarning kuzatishicha, bu yerda soatiga 300 marta-gacha yashin chaqnaydi va odatda butun tun bo'yi davom etadi.

Besh kilometr balandda yorqin osmon yorishishi chaqmoq paydo bo'lish belgisi hisoblanadi. Osmon avval qizg'ish rangga, so'ngra alvon tusga kiradi. Bir necha daqiqadan so'ng sarg'ish ko'rinish oladi. Manzara kishini hayratga solib maftun etadi, shu bilan birga hushyor torttirib, dahshatga tushiradi, chaqmoq chaqish boshlanadi. Na momaqaldiroq, na biror ovoz eshitiladi, rang-barang shakldagi yashin bir yilda 200 martagacha sodir bo'ladi, eng ajablanarlisi, bu faqat tunda ro'y beradi.

Noyob tabiat hodisasi paydo bo'lishi haqida olimlarning fikri har xil. Biri bunga

sabab shamol harakati, desa, boshqasi ko'l tubidan metan sizib chiqishi, uchin-chisi "Hudud tuprog'ida uran ko'pligi chaqmoq paydo bo'lishiga olib keladi", deydi. Uran katta miqdorda ozon hosil



qilish manbai hisoblanadi. Hosil bo'lgan chaqmoq gazi quyosh ultrabinafsha nurlarini o'tkazuvchi ozon tuynugini yopishga xizmat qiladi.

Ushbu ozonator sirini aniqlash uchun suv tubiga tushirilgan maxsus g'avvoslar ekspeditsiyasi ilmiy kuzatuvlari hozircha natija bergani yo'q.

## PASXA OROLI SIRI

Bu orol sayyoramizning eng sirli joyi hisoblanadi. Eng katta jumboq – tosh haykallar. Ularning balandligi 10 metrga yetadi. Orolni ochgan golland dengizchisi Yakob Roggevan u yerda bir kungina bo'lsa-da, juda ko'p aqlbovar qilmas jumboqlar haqida yozib qoldirgan. Qizig'i shundaki, tosh haykallar qirg'oqda orqasini okeanga o'girib saf tortib turibdi.

Ayrim tadqiqotchilar ushbu haykallarni qandaydir boshqa sivilizatsiya vakillari o'rnatgan degan fikrda. Haykallar soni 900 ga yaqin. Ayrimlari pala-partish o'rnatilgan bo'lsa, ko'pchiligi qat'iy tartibda joylashgan. Qiyofalari juda g'alati, ulkan kalla, uzun quloq, yuzlari tund, soqollari barvasta. Vulqon kul qoldiqlaridan yasalgani uchun haykallarini o'rnatishda qiyinchilik tug'dirmagan. Tanasida mahalliy aholi

foydalanadigan ayrim buyumlar, hayvon va qushlar tasviri o'yilgan. Hayratlisi, orolda bunday jonivorlar yashamagan.

Rivoyatlarga qaraganda, orolda uzun quloq odamlar yashagan. Ular quloqqa og'ir zirak taqib yurishgani uchun quloq cho'zilib, uzayib ketgan. Janubiy Amerika changalzorlarida yaqin vaqtlargacha shunday qabilalar saqlanib qolgan. Taxminan 400 yil avval orolga polineziyaliklar ko'chib kelishgan. Shakarqamish, banan, kartoshka yetishtirishgan. O'zlari bilan tovuqlar olib kelishgan. Eramizning 1200 yili bu yerda Janubiy Amerika aholisi paydo bo'lgan. Hozirgi kunda ushbu orol Chiliga qarashlidir. Qit'adan juda olisda 3,5 ming kilometr narida joylashgan. Orol quruqlik maydoni 163 kvadrat kilometr, 6 mingga yaqin aholi yashaydi.



Rasmiy tili ispan va rapanuy, iqtisodi sayyohlikka asoslangan. G'alatisi shundaki, orolda ko'z ko'rib, quloq eshitmagan hodisalar ro'y berib turadi. 1922-yilda kuchli dovul oqibatida orol butunlay suv ostida qolgan. Bir necha kun o'tgach, yana yuzaga chiqqan. Ko'pchilik tadqiqotchilar Pasxa oroli anomal hududda joylashganligini ta'kidlashadi. Shu bois, bu yerda boshqa o'lchamdagi olam odamlari, buyumlar paydo bo'lishi mumkin.

## ODAMXO'RLAR

Hindistonda inson go'shtini iste'mol qilishga qarshi bo'lmagan guruhlar mavjud. "Aghori" deb nomlangan hind sektasi o'limidan oldin o'z ixtiyori bilan vasiyat qilgan odamlarning ichidagi bor narsani yeydi.

Yangi Gvineyada "Korovay" nomli yovvoyi qabila yashaydi. Ular marosim va gastronomik maqsadlarda inson go'shtini iste'mol qiladi. Ularning an'anaviy tushunchalarida hech qanday sababsiz vafot etgan kishi joduga duchor bo'lgan bo'ladi. Shu sababli ular o'zlari va atrofdagilarni himoyalash maqsadida marhumning jasadini yeyishga majbur bo'lishadi. Qabila daryo bo'yidagi hududda yashaydi va tirikchilik uchun sayyohlarni o'ldirgan holatlari ham kuzatilgan. 1961 yilda Nyu-York gubernatori Nelson Rokfellerning o'g'li Maykl Rokfeller Korovay hududlarida izsiz g'oyib bo'lgan, o'shanda hatto uning jasadi ham topilmagan. Mish-mishlarga ko'ra, amaldorning o'g'lini mahalliy qabila yeb qo'ygan.

Kambodja hududida 1960–1970-yillarda kannibalizm, ya'ni inson go'shtini



iste'mol qilish keng tarqalgan. Garchi juda kam bo'lsa-da, u yerda kannibalizmning namoyon bo'lishini bugungi kunda ham ko'rish mumkin. Qizil xmerlar tomonidan oziq-ovqat ta'minoti ustidan qilingan nazorat butun mamlakat bo'ylab ocharchilikni keltirib chiqargan. Shuningdek, dushman jigarini yeyish Kambodja jangchilari orasida keng tarqalgan marosimdir. Qizil xmerlar ishlab chiqarish vositalariga xususiy mulkchilikni bekor

qilganida, ko'plab dehqonlar erkin hayot kechira olmagan va ular bir-birlarini marosim uchun emas, balki gastronomik maqsadlarda yeyishga majbur bo'lishgan.

Kannibalizmning eng yuqori cho'qqisi Kongo fuqarolar urushi davriga to'g'ri kelgan edi. Urush paytida qo'zg'olonchilar o'rtasida raqibni, ayniqsa, uning yuragini yeyish boshqacha kuch beradi, degan fikrlar bo'lgan. Endilikda, Kongoda kannibalizm odatiy hol bo'lmasa-da, 2012-yilda odamni yeyish holati qayd etilgan.

G'arbiy Afrikada Leopard nomli qabila vakillari odamlarni ovlagan. Qabila inson go'shtini iste'mol qilish, ularni kuchliroq, tezroq va chidamliroq qilishga qat'iy ishongan. Ularning an'anaviy kiyimi leopard terisidan tikilgan bo'lib, ular bu hayvon tishlaridan o'ziga qurol yasagan.

Braziliyadagi "Vari" qabilasi 1960-yilgacha dindor va taqvodor odamlarning murdalarini yeb kelgan. O'ta qashshoqlik tufayli hali ham vaqti-vaqti odamxo'rlik holatlari sodir bo'lib turar ekan. Qabilaning aksariyati missionerlar tomonidan yo'q qilingan.

Sahifani Anvar QOBILOV tayyorladi



## Vaziyat

gazetasi

**Muassis:**  
O'zbekiston  
Respublikasi  
Favqulodda  
vaziyatlar  
vazirligi

*Bosh muharrir*  
**Azamat SUYUNOV**

*Gazeta tahririyat  
kompyuterxonasida  
sahifalandi.*

Gazeta har haftaning  
payshanba kuni chiqadi.  
Topshirish vaqti – 15.00  
Topshirildi – 15.00

*Navbatchi:*  
**A.QOBILOV**

Tahririyatga yuborilgan  
materiallar qaytarilmaydi  
va izoh berilmaydi.  
Mualliflar fikri  
tahririyat nuqtai nazaridan  
farqlanishi mumkin.

Gazetadan olingan materiallar  
manbasi ko'rsatilishi shart.

Gazeta O'zbekiston Matbuot va  
axborot agentligida 2007 yil  
3 yanvarda 0096-son raqam  
bilan ro'yxatga olingan  
**ISSN 2091-5292**

**Tahririyat manzili:**  
100084, Toshkent shahri,  
Yunusobod tumani,  
Sh.Rashidov ko'chasi, 17-A-uy.  
**Tel.:** (71) 212-69-56  
**Telegram:** (90) 016-87-67

**Indeks:**  
*yakka obunachilar va  
tashkilotlar uchun - 382*

Gazeta "Sharq NMAK"  
bosmaxonasida bosildi.  
Manzil: Toshkent shahri,  
Mirobod tumani  
Buyuk Turon ko'chasi 41-uy  
Buyurtma № G-1052  
Bichimi: A3, hajmi: 2,0 b.t.  
Adadi - 10000 nusxa